



FURQATNING TANQIDIY QARASHLARINING SHAKLLANISHI

Berdiyeva Madina

Osiyo Xalqaro Universiteti

O'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistanti

Ilmiy rahbar:

Sh.N. Ahmedova

Osiyo Xalqaro Universiteti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'rifatparvar adib Furqatning adabiy tanqidiy qarashlarining shakllanishi hamda Furqatning hayot haqiqatiga sodiqlik haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, Furqatning munaqqid sifatida tanqid jarayoniga kirib kelishi va adabiy jarayonni yangi bosqichga olib chiqishi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvar, adabiy tafakkur, tanqidiy qarashlar, jamiyatdagi tengsizlik, jaholat.

Kirish.

Adabiy tanqid ilmda o'ziga xos hodisa sifatida dastlab Platon, Aristotel, Aristarx faoliyatlarida antik zamonda namoyon bo'ldi. Adabiy tanqid (arabcha - muhokama qilish, saralash) adabiyotshunoslikning asosiy sohalaridsn biridir. Adabiy tanqid asosan harakatdagi adabiy jarayonni tekshiradi, yangi paydo bo'layotgan asarlar talqin vositasida taraqqiyot tamoyillari haqida xulosa chiqaradi, adabiy jarayonga, yangi mezonlar shakllanishiga ta'sir etadi.

V.B. Belinskiy "Adabiy tanqidni" harakatdagi" estetika deb bejiz aytmagan.

Tanqidchi ham ijodkor. "Tanqid" arabcha so'z bo'lib "muhokama qilmoq, hukm qilmoq, fikr yuritmoq" kabi ma'nolarni anglatuvchi so'zdir.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek, Ilmni qadrlang, ilmga intiling" degan so'zlarni takrorlaydilar. Sir emaki, jahon bozorida faqatgina o'z ustida ishlaydigan, o'qigan, zamonaviy ilm va hunalarni puxta egallagan, yosh avlodlarni ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda.. [1] Ona vatanimiz olamshumul yutuqlarga erishgan buyuk siymolar yurti ekan, o'sha zotlarning merosini o'rganish, muhofaza qilish, kelgusi avlodlarga yetkazish joizdir. Bu borada adabiyotning o'rnini ayniqsa beqiyosdir.

19-asr oxiri 20 asr boshlarida o'zbek adabiy muhitining o'zgarish jarayonlariga o'zining beqiyos ulkan hissasini qo'shgan va davr nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega bo'lgan buyuk namoyandalaridan biri, o'zbek adabiy tafakkurining jadidchilik davriga bog'liq holda shakllangan ma'rifatparvar, milliy o'zlikni anglash g'oyalarini ilgari surgan ijodkor bu



-Furqatdir.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat 1859- yilda Qo'qon shahrida tavallud topgan. Otasi Xolmuhammad ilm fan va adabiyotga mehr qo'ygan, bu esa Furqatning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o'ynagan. U o'z davrining ilg'or fikrli ziyolilaridan biri bo'lib, zamonaviy bilimlarni egallashga intilgan. Furqat rus maktablarida tahsil olib rus tili madaniyatini o'rganadi. Bu esa uning dunyoqarashini kengaytiradi va ijodida yangi g'oyalar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Furqatning tanqidiy qarashlari adabiy jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Furqat o'zbek adabiyotshunosligida o'z g'oyalarini ilgari surgan holda munaqqidlik fikrining uchqun o'tgan ildizlarini mustahkamladi. Furqat davr nuqtai nazaridan kelib chiqib jamiyatdagi tengsizlikni, ijtimoiy siyosatni, zulmni tanqid ostiga olib ko'rsatdi. Adib milliy taraqqiyotning bosh omili sifatida ilm - fan va ta'lim - tarbiyani tanlagan. U o'z xalqini bilimga, ilm ma'rifatga zamonaviy bilimlarni egallash uchun tanqidiy fikrlari bilan undaydi.

Furqat xalqni jaholatdan chiqarish, ilm - fan va texnikani o'rganishga undagan. Furqat ayollar ta'limiga katta e'tibor qaratgan va bu borada ilg'or qarashlarni ilgari surgan.

Furqatning "Maktab kerak", "Ilm nuri" kabi maqolalari va she'rlari orqali u o'z davrining ijtimoiy ongini uyg'otishga harakat qilgan. Furqat shunday maqola va she'rlari bilan xalqni ma'rifatga chorlagan bir vaqtda Boborahim Mashrab ham oddiy xalqning kundalik dardlari va ichki ijtimoiy illatlar bilan bir qatorda mahalliy ijtimoiy hayotni tanqid qilib munaqqidlik ostonasiga qadam qo'ydi. Mashrabning qarashlari Furqatning qarashlaridan keskin farq qilardi. Mashrabning qarashlarida achchiq kinoya, satira, kulgi orqali fosh etish bazan esa zaxarxanda fikrlari aks etardi.

Ikki adib ham bir davrda yashagan bo'lsada turli xil tanqidiy qarashlari bilan namoyon bo'lgan.

Furqat chet el hayoti, Yevropa taraqqiyotiga qiziqqan. Shu boisdan xalqni, millatni uyg'otishga intilgan shaxs sifatida gavdalanadi

Furqat o'ylantirib uyg'otadigan ohangda tanqid qilgan bo'lsa Mashrab kuldirib o'ylantiradigan tanqidiy qarashlari ila namoyon bo'lgan.

Furqat o'ylantirib uyg'otadigan ohangda tanqid qilgan .

Furqatning "Bir mojarro" dostoni adibning o'zi yashagan davr va o'sha muhit hayotidan olingan bo'lib unda o'sha davr muhiti tanqidiy -satirik ko'rinishida yoritib berilgan. Furqat so'zga insonga ato etilgan ulug' ne'mat sifatida qaragan. Furqat ijodiy faoliyati jarayonida faqat bir so'zdan emas balki bir so'zning bir qancha variantlaridan foydalanib o'zining so'z qo'llash mahoratini qay darajada ekanligini ko'rsatib o'tgan. Xususan ijodkorning

Jahonda kamsuxan kim bo'ldi , asrori nihon bo'ldi,



Kimniki soʻzladi koʻp ,bilki rasvoyi jahon boʻldi.

"Jahonda kamsuxan kim boʻldi..." radifli gʻazalida "kamsuxan "va "soʻzladi koʻp"jumalari uygʻunlashib shakldoshlikni hosil qiladi.

Shunday ekan soʻz borasidan kelib chiqib Furqatning tanqidiy qarashlarini ijodiy faoliyati asosida oʻrganish ham maqsadga muvofiqdir.

•Ijtimoiy tengsizlik orqali:

"Charx kajraftorning bir shevasidan dogʻmen"radifli gʻazali orqali nodonlarning hukmronligi va donolarning xorligini tanqid ostiga oladi.

•Mustamlakachilik va zolimlik :

"Sayding qoʻyaver , sayyod "musaddasi inson huquqlarini himoya qilib zulm va istibdodni fosh etadi.

•Milliy uygʻonish:

"Bormasmuz ", "Oʻqimoq kerak ", radifli sheʼri orqali milliy oʻzlikni anglash va mustamlakachilarga qarshi noroziliklarni badiiy ifodalaydi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki Furqat oʻz ijodi orqali oʻzbek adabiyotida maʼrifatparvarlik gʻoyalarning shakllanishi va rivojiga katta hissa qoʻshgan. Adib maʼrifatparvar shoir sifatida oʻzbek xalqini yangi davr sari yetaklagan ijodkordir.U oʻz asarlari orqali ilgari surgan tanqidiy qarashlari islohot, uygʻonish, ilm- fan ,adolat ,ogohlik gʻoyalari bugungi kunda ham dolzarb muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Sh.Mirziyoyev, Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashr.-Toshkent:"Oʻzbekiston"nashriyoti, 2022.-440 bet.
2. Jabborov N.Furqat - siz raʼnosining oshirish.-Toshkent:Fan,2020.
3. Norboy Jabborov, Sharq yulduzi. 2001, ikkinchi fasl, 121-127-betlar.
4. Abduqosimova Munira. Furqat ijodida maʼrifatparvarlik gʻoyalari nomli maqolasi.-B .123-124.
5. Sh.Axmedova. Oʻzbek adabiy tanqidi tarixi., Buxoro.,2008. 52-bet.